Game progress: This game can be used in a class with any number of students. Write on the Board, if necessary, a list of different sports and Hobbies. Students should select from this list and write in two columns what they like (I like) and what they don't like (I don't like).

The goal of the game is to find a partner with the most similar interests. To do this, students must walk around the classroom and ask each other questions using speech patterns until they find the perfect partner.

Activity 3. The following game can be used to train the construction of there is/are or the question Have you got...? Before the game, take a bag and put in it 8 different items related to vocabulary on a specific topic, for example, animals, school supplies. Show it to the children and explain that they can ask 20 questions to guess all the items in the bag. For example, Is there a rubber in the bag? Have you got a dog in the bag? If the student guesses the item, then it must be taken out of the bag and shown. Children win if they have guessed all the items, while asking no more than 20 questions. During the game, you must record the number of questions asked.

Activity 4."Guess". Ask the children to write their names on the pieces of paper. Collect the leaves and mix them in a bag. Ask one of the students to take any piece of paper with a name



from the bag without naming it. The others must ask no more than six questions to guess whose name is on the piece of paper. For example, Is it a boy/girl? Has he/she got brown hair? Does he/she play the piano? Has/she got a brother/sister? Does he/she like to play football? Is it...? The first person to guess takes the next piece of paper from the bag.

In conclusion, we can say that the effectiveness, fun and variety of communication games makes them an indispensable tool for teaching English and leaves room for every teacher's imagination. Communication games allow the student to speak more freely. Games can enliven the lesson, bring naturalness to educational communication in the language being studied, facilitate the process of learning language material, and make educational work interesting. Any activities, exercises, and games that include these fundamentals can improve skills in communication.

References:

1. Lynch, T., (1996). Communication in the Language Classroom. Oxford: Oxford University press.
2. Watcyn-Jones, P.,(1995). Grammar Games and Activities for Teachers. England: Penguin Books.
3. Wright, A., Betteridge, D., and Buckby, M., (2006). Games for Language Learning. Third Edition. Cambridge: Cambridge University Press.



HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA XALQ OG'ZAKI IJODI AN'ANALARI: OT OBRAZI MISOLIDA

Nodira Xudoynazarova
Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU
401-guruh talabasi +998916227467
nodiraxudoynazarova1@gmail.com

Annotatsiya: Har bir ijodkor o'z ijodida, albatta, xalq og'zaki ijodi namunalaridan ya'ni, folklorizmlardan foydalanadi. Biz ushbu maqolamizda O'zbekiston Xalq Shoirasni Halima Xudoyberdiyevening ijodidagi ot obrazi bilan bog'liq folklorizmlar haqida fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar: Obraz, ot, folklorizm.

Folklor elementlaridan, obrazlaridan badiiy adabiyotda foydalanish hamisha badiiy harakterga ega bo'lib kelgan. Badiiy adabiyotda bu jarayon folklorizm deb atalishini esa barcha adabiyot bilan shug'ullanadigan insonlar bilishadi. "Demak, folkloргa xos barcha komponentlarning adabiyotdagi o'rni ijodiy qayta ishlanish, rivojlantirish orqali belgilanadigan, natijada bu komponentlar folkloргa asoslangan, ammo yozma badiiy adabiyotning muhim zaruriy komponentiga aylanib qolgan bo'ladi. Xullas, yozuvchi o'z g'oyaviy niyati, mahoratiga qarab folklor materialiga turlicha munosabatda bo'ladi. Ya'ni bu o'rinda u folklor materialini aynan ishlatsa, yana bir o'rinda uni shu darajada o'z asarining ruhiga singdirib yuboradiki, uni oddiy folklorizmni qayd etish yo'li bilan aniqlab bo'lmaydi."¹ Ammo har bir yozuvchi o'zi foydalanayotgan obraziga yangi bir yuk yuklashi lozim. Bunday yangilik qilish, original bir fikr chiqara olish oson bo'lmasa ham, ammo xalq og'zaki ijodiga qiziqish zarracha ham susaymadi. Balki folklorizmning o'ziga xosliklaridan yozuvchi va shoirlar hamisha foydalanib izchil foydalanishga harakat qilib kelmoqdalar. Adabiyot o'zi bosib o'tgan shu qadar tarixiy yo'llar davomida xalq og'zaki ijodi buloqlaridan suv ichib bo'y cho'zishni aslo tark etmadi. Ammo har bir yozuvchi bu buloqdan o'zining chanqog'ini qondiradigan darajada oladi va kerakli miqdorda iste'mol qiladi. Aynan shu o'rinda har bir bir shoir va yozuvchining iste'dodi o'rtaga chiqadi. "Bu xususiyat ijodkorning ertak yoki dostonlar syujeti asosida asarlar yaratishida yoki xalq maqoli va matallaridan foydalanganida emas, balki unda xalqqa xos fikrlash, obraz va epitetlar qo'llash, qahramon harakterini yaratish, hatto psixologik munosabatlarini berish, qisqasi uning uslubi va manerasida mujassamlashgan bo'ladi."² Shoira Halima Xudoyberdiyeva ijodida ham folklordan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Shoira ijodida ot obrazi bilan ham bog'liq misralar va she'rlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. "Turkiy xalqlar og'zaki ijodida ot totemiga ham alohida ahamiyat berilgan. ... "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlarda G'irot, "Alpomish"da Boychibor, qirg'iz eposi "Manas"da Oqula, oltoy turkiylarining eposi "Maaday Qora"da Karish Quloq kabi otlar obraziga katta e'tibor berilishi totemistik qarashlar natijasidir."³ Shundan kelib chiqadigan bo'lsak shoira ham ijod namunalarida ot obrazidan turli maqsadlarini ochishda foydalanadi. "Qaytish" she'rida ot obrazi bilan bog'liq turli xil inson kechinmalarining chizgilarini ko'ramiz:

Yiroq elatlarda quyosh porlaydi,
Talpinaman, otga qamchi bosaman.
... Nigohimni tortar olis manzillar,
Nechun boshing quyi uchmaysan, otim?
.... Yana qamchi bosdim, shu dam, o, afsus,
Ot ko'kka sapchidi, yerga yiqildim.
Qaytib chopib u shamoldan tez,
Otning izlariga ma'yus tikildim.
Sadoqatli do'stim ortiga qaytdi,
Uzoq ketolmadi notanish yo'lda...⁴

¹ Sa'dullayeva Shoira. «Tog'ay Murod asarlarida ma'naviy-axloqiy muammolar talqini». – N.: - 62 b.

² Sa'dullaeva shoira. «Tog'ay Murod asarlarida ma'naviy-axloqiy muammolar talqini». – N.: - 62 b.

³ <http://www.uz.Hozir.org>.

⁴ Xudoyberdiyeva Halima. Tanlangan asarlar. – T.: "Sharq", 2019. – 17 b.



Ot bиринчи misrada maqsadni ifodalayabdi. Ya'ni muallif yiroq manzillarni o'ziga oshiyon sifatida ko'rmoqda. Ammo otning bo'yni egik, bundan ko'rindiki, muallifning yo'lida to'siqlar mavjud. Qancha ketishga oshiqmasin, maqsadining oldida kuchsizday, shu sababdan ot uni ustidan yiqitib o'zi ketadi. Shoira bu o'rinda maqsadining, intilishining xattoki, o'zidan ham kuchli ekanligini o'quvchiga anglatmoqchi bo'ladi. Ammo she'r keyingi misralarida ot yana orqaga qaytadi. Bu o'rinda esa otning sadoqati orqali, manzilga hech bir zamon maqsad emas balki, maqsadning egasi yetishi mumkinligini ochiqlaydi shoira. Inson qanchalar qiyinchilikka duch kelmasin, uning qalbida hamisha umid yashaydi. U balki maqsad ko'rinishida kelsin, balki orzu. Shu o'rinda esa zukko o'quvchining xayliga Alpomishning oti Boychibor keladi. U ham egasini tashlab ketmaydi. Uni qutqarish uchun qaytadi. Insondagi umidning ham vazifasi shunday emasmi? She'rning yozilish yillariga e'tibor qaratamiz. She'r shoiraning 1973-yildagi "Oq olmalar" to'plamiga kiritilgan. Bu davrda shoira Toshkentda "Saodat" jurnalida faoliyat yuritar edi. Oradan ikki yil o'tib esa, Moskvadagi Oliy Adabiyot kursiga tehsil uchun ketadi. Shoira yuqoridagi satrlarda maqsadiga yaqin qolgan bo'lsa-da, ona tuproqning sog'inchi, otasining erta vafoti sababli yolg'iz qolgan onasining oldidagi mas'uliyati kabi o'ylar uni ortga qaytaradi.

Oting nechun gijinglar bu payt,
Ro'molimni sen oldingmi, ayt? - ¹

deya xitob qiladi shoira "Bizning tog'da" she'rida. Qadimdan bizda tog' yigitlarining oti uning eng yaqin hamrohi hisoblangan. Qizning ro'molini qo'lga kiritgan yigitning oti o'zidan ham xursandday tasvirlanadi she'rda. Aslida bu yerda ham ot orzuga yetganlikni ifodalamoqda. Agar yigitning oti chopqir chiqib, uloqni yutsa, qizning otasi qizini u yigitga berishga rozi bo'ladi. Bu satrlarda shoira xuddi otga katta umid bog'layotgan qizning ham quvonchini qo'shib tasvirlaganday bo'ladi. Barchin ham Alpomishni o'yinni qozonishi uchun, Boychiborga yolvorganining nidosi she'rga ko'chganday tasavvur uyg'otadi.

Shoiraning "Qo'msash" she'rida ham ot bilan bog'liq holda insonning ayriliq bilan bog'liq alamli kechinmalari jarang sochadi:

Yo'ldan yelib o'tar uchqur ot,
Bir-bir kechar bolalik yoddan.
Men chavandoz qizini hayot
Juda erta ayirdi otdan.²

Ot obrazi – xalq og'zaki ijodining ajralmas totemistik qahramoni. Bu obrazda maqsad ham, orzu ham, umid ham, sadoqat va vafo ham mujassam. Shoira esa yuqoridagi satrlari bilan obrazga yangi bir yuk yuklaydi. Oldidan o'tgan uchqur ot qo'ldan ketgan va to'laligicha yashalmagan hayot yuki. Otadan erta ayrilgan, baxti yarim qizning nidosi. Insonning otidan ayrilishi, bu maqsadidan, baxtidan ayrilishi bilan barobar ekan, bu hayotda har bir qizning eng kuchli mehr qo'yan insoni otasi bo'lishini inobatga olsak, otasidan ayrilgan qiz ham bir muddat maqsadlaridan ayrilib qolganday bo'ladi. Shoira otasining va o'zining bolalik chog'idagi xotiralarini aynan ot obraziga yuklab, yana ham ta'sirli qilib ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan xulosa sifatida, shularni olishimiz mumkin:

1. Shoira she'rlerida ot obrazini asosan otasi Ummatqulboy Xudoyberdi o'g'li bilan bog'liq eslaydi. Shoiraning ijodidan namunalar mutolaa qilar ekanmiz, ot obrazining shoira hayotidagi ajralmas jonzot va she'rleridagi yetakchi obraz bo'lganini kuzatamiz. Ammo turli satrlarda ayricha vazifa olgan ot obrazi, kitobxonga shoiraning maqsadlarini yel kabi uchqur olib keladi. Bu ham yozuvchining xalq og'zaki ijodidagi ot obrazini o'ziga xos tahlil qilishidagi zukkoligi deb aytishimiz mumkin.

2. Har bir yozuvchi o'z ijodida bevosita xalq og'zaki ijodiga murojaat qiladi. Bunda u totemistik obrazlardan o'zining dunyoqarashidan kelib chiqqan holda foydalanadi. Halima Xudoyberdiyevadagi o'ziga xoslik esa bu o'rinda ot obrazidan ko'proq xotira siniqlarining o'z o'quvchilariga yetkazishda foydalanganligida deyish mumkin.

3. Shoira ot obrazining asl totemistik vazifalaridan uzoqlashmagan holda, ayni o'ringa azoblarini ham qo'yadi. Bu esa yozuvchining obrazga qo'shimcha vazifa yuklay olish mahoratini tasdiqlaydi.

¹ Xudoyberdiyeva Halima. Tanlangan asarlar. – T.: "Sharq", 2019. – 22 b.

² Xudoyberdiyeva Halima. Tanlangan asarlar. – T.: "Sharq", 2019. – 28 b.



TEACHING LISTENING AND SPEAKING THROUGH MUSIC

*Karimova Durdona Isroyilovna,
г.Навоий, СШУИОП №1
учитель английского языка*

Annotation: the present article is devoted to teaching pupils with the help of songs. Most of the teachers nowadays use music during their lessons and by using the they improve pupils' listening and speaking skills.

Key words: receptive skill, induction and deduction approach, dialogue and monologue speech

As learning English is becoming more important than ever in Uzbekistan and is used for different purposes, it is necessary to engage learners in the process of language learning via effective and engaging methods. Teachers are in constant search for essential activities that allow learners to improve their learning abilities of a foreign language. Through innovative technologies, interactive and communicative methods language teachers can create the right climate for language learning. Currently, in higher education, teachers use music, songs, comics, sound films, stories, fairy tales, language games, cartoons and movies to make the teaching-learning process more interesting. According to Girard, D. & Trim, J. L. M. «...teachers sometimes use these when the theme or lesson is difficult and to keep students motivated to continue learning foreign languages. Playing different language games, listening to music, singing songs, watching various education related films or cartoons can help learners understand target (nonnative) language. Inclusion of a wide range of activities is connected with students» multiple intelligences as well. First founded by Howard Gardner, the theory of multiple intelligences proved to be considered by teachers while developing curricula and material designers to address most of the intelligences for achieving effective teaching-learning environment. The purpose of this book is to reveal how songs can stimulate students with multiple intelligences to learn new vocabulary. It is probably safe to say that almost everyone loves music. While not everyone appreciates the same kind of music, some like classical, while others love hard rock, jazz. Students especially enjoy listening to, discussing, and sharing their favorite music with each other. Thus, for ESP teachers who may want to «live up» their classes, we would like to suggest that they offer their students a «music presentation day» in which they allow their students to showcase their favorite songs/singers/bands. As Thornbury S mentioned music, songs and sounds influence people»s state and mood. They evoke emotions, encourage, cure and teach. Today, we know that music and songs are used for pedagogical purposes as well. Many teachers include songs in their lesson plans to explain grammar rules, new vocabulary or concepts in a more interesting and creative way. Songs provide examples of authentic, memorable and rhythmic language. They can be motivating for students keen to repeatedly listen to and imitate their musical heroes. However, incorrectly pronounced sounds strain communication, sometimes even changing a phrase»s meaning. Songs are authentic and easily accessible examples of spoken English. The rhymes in songs provide listeners with repetition of similar sounds. Students often choose to listen to songs time and again, indirectly exposing them to these sounds. Here we are going to give some activities using songs during the lesson.

Activity 1

We can choose six words from a song from which minimal pairs can be created by.

- heaven — even
- hunger — anger
- man — mad

(From «Imagine» by John Lennon)

We write the pairs separately on cards and give out one set per group of four or five students. The students then match the pairs. They then listen to the song and «grab» the correct one. Choices are then checked against the lyrics.

Activity 2

We give out the lyrics, with certain words for students to guess the number of syllables, leaving a space by each word to write the number in. Students then listen, checking their predictions. At higher levels, we repeat the activity, with students underlining the stressed syllable whilst



listening. We then drill these words and sing or chant the whole song through. Here using songs is to focus on connected speech. Connected speech is the natural way we speak, linking together and emphasizing certain words, rather than each word standing alone. Contractions (two words forming one) are an extreme example of the way we connect speech, to the extent that the written form too is affected. Songs, and especially the chorus, provide real and «catchy» examples of how completely phrases are pronounced often to the extent that students find it difficult to pick out individual words. Songs, like other spoken texts, are full of contractions. Students can be keen to reproduce this, in order to sing the song as they hear it. In this article, we use the following songs. These songs can ease the process of learning the body parts in the English language. As an English teacher, I use them in the classroom and find them to be effective in creating a relaxing atmosphere and entertaining learning process, and eliminating students» negative attitude towards foreign language learning. Thus, singing songs, even simple nursery rhymes, is useful in teaching English and providing systematic and active learning even to adults. Finally, for any teachers who may be wondering if using any of the ideas we have presented here will really work for a class they are teaching, we encourage you to simply play a song or two in your class and see how your students react. We believe that teachers who have not used music in their classes previously will quickly discover that songs are a great way for teachers and students to «bond» together, and enjoy the time we have together.

References:

1. Girard, D. & Trim, J. L. M., (Eds.) (1988) Project no 12. Learning and teaching modern languages for communication. Final report of the project group (activities 1982–87), Strasbourg: Council of Europe.
2. Griffee, D. T., (1995) Songs in action, Hertfordshire: Phoenix.



ТАРЖИМА - БИР ТИЛДА ЯРАТИЛГАН МАТННИ ЎЗГА ТИЛДА ҚАЙТА ЯРАТИШ ИЖОДИЙ ЖАРАЁНИ СИФАТИДА

Каюмова Камола Насировна
Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Давлат бошқаруви академияси
“Хорижий тиллар” кафедраси доценти, PhD
E-mail: Kamola0585@gmail.com
Моб.тел.:+998909185051

Аннотация: Мазкур мақола сўнгги йилларда олиб борилаётган лингвистик тадқиқотларда таржима муаммоларига катта эътибор қаратилиши, лингвистик таржимашунослик соҳасида тадқиқотчилар эътиборини борган сари ўзига тортаётган таржима назарияси ва амалиётининг моҳиятини акс эттирадиган назарий масалалар устида кенг кўламли тадқиқотлар олиб борилишини ўрганади. Таржима жамиятимизда янгича муносабатлар, қарашлар карор топишига хизмат қиласди. Таржима туфайли дунё миқёсидаги андозалардан фойдаланиш имконияти юзага келади.

Калит сўзлар: лингвистик тадқиқотлар, таржима, таржимашунослик, таржима лингвистикаси, тиллараро, лисоний.

Аннотация: В этой статье исследуются проблемы перевода в лингвистических исследованиях в последние годы, а также обширные исследования теоретических вопросов, отражающих сущность теории и практики перевода, которые все больше привлекают внимание исследователей в области лингвистических исследований перевода. Перевод служит для установления новых отношений и взглядов в нашем обществе. В результате перевода появляется возможность использовать шаблоны мирового уровня.

Ключевые слова: лингвистические исследования, перевод, переводческое дело, лингвистика перевода, межъязыковой, лингвистический.

Abstract: This article explores the problems of translation in linguistic research in recent years, as well as extensive studies of theoretical issues reflecting the essence of translation theory and practice, which are increasingly attracting the attention of researchers in the field of linguistic translation research. Translation serves to establish new relationships and attitudes in our society. As a result of the translation, it becomes possible to use world-class templates.

Key words: linguistic research, translation, translation linguistics, interlangual, linguistic.

Таржима амалиётини тиљшунослик нұктай назаридан таҳлил қилиш зарурияти, аниқроғи таржимашуносликни тиљшуносликнинг ажралмас бўлғаги сифатида англаниши таҳминан ўтган асрнинг 70-йиллари охиригача А. В. Федоров ва унинг издошлари томонидан илгари сурйлган. Мазкур қараш кўпроқ грамматик ҳолатларнинг ўзаро муносабатидан келиб чиқиб, бир тилдан иккинчи тилга қилинаётган таржималар сифати тўғрисида хулосалар чиқаришни ўз олдига мақсад қилиб қўйган қўпгина тадқиқотчиларнинг эътиборини ўзига қаратган, ҳамда тиљшуносликнинг таржимашунослик йуналиши ахамиятини кучайтирган. Мазкур йўналиш ҳозирги пайтда «таржима лингвистикаси» деб номланётган таржиманинг тиљшунослик тадқиқотининг пайдо бўлиши учун асос бўлди ва унинг ривожланишига замин яратди.[1] Таржиманинг аслиятга шаклан ҳамда мазмун жиҳатидан мос тарзда ўгирилишининг бирдан-бир шарти таржимоннинг ўз она тилида аслимонанд лингвистик воситалар танлаб ифода этишидадир. Бу маъсулият унинг зиммасига аввало асл маъно ва вазифасини камчиликларсиз идрок этиш, сўнгра хотирасида шаклланган фикрни ўз тили маданияти ва меъёри асосида камчиликсиз тўлиқ ифода этиш вазифасини юклайди.

Сўнгги йилларда олиб борилаётган лингвистик тадқиқотларда таржима муаммоларига катта эътибор қаратилмоқда. Лингвистик таржимашунослик соҳасида тадқиқотчилар эътиборини борган сари ўзига тортаётган таржима назарияси ва амалиётининг моҳиятини акс эттирадиган назарий масалалар устида кенг кўламли тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Таржимага айнан лингвистик таржимашунослик нұктай назаридан назар солиб, уни қўйидагича таърифлаш мумкин. Инсон фаолиятининг мураккаб шаклларидан бири бўлган таржима - бир тилда яратилган нуткни (матнни), шакл ва мазмун бирлигини сақлаган ҳолда, ўзга тилга хос воситалар асосида қайта яратишдан иборат ижодий жараёндир.



Шунинг билан, аслиятга мансуб бўлган, тил воситалари ёрдамида яратилган нутқий ифода (матн) таржима тили қонуниятлари асосида вужудга келган худди шундай ифода билан алмаштирилади. Шу усул орқали аслият ва таржима тиллари матнларининг мазмуний-услубий адекватлиги юзага келтирилади. Мазкур таъриф тиллараро амалга ошириладиган жараёнга алоқадор бўлиб, инсоният фаолиятининг кўпроқ қисми мазкур амалиёт билан боғлиқдир. Шу туфайли «таржима» деганда аксарият кишилар кўз олдига, биринчи на-вбатда, бир тилдаги матнни иккинчи тилга ўгириш фаолияти намоён булади. Таржима инсоният фаолиятининг энг қадимий турларидан бири бўлиб, у туфайли биз инсоният тараккиёти тарихини барча тафсилотлари билан очиқ-ойдин тасаввур этамиз. Таржима халқлар ўртасидаги дўстлик, қардошлиқ ва ҳамкорлик манфаатларига, улар ўртасидаги иқтисодий-сиёсий, илмий, маданий ва адабий алоқаларнинг кенгайишига хизмат қилувчи қудратли куролдир. [2] Таржима турли халқлар адабиётларининг, инсон ҳуқуқлари ҳамда барча келишув ҳужжатларининг ўзаро алоқаси ва бир-бирига таъсири жараёнини мукаммалаштиради. Таржимавий асарлар орқали китобхонлар жаҳон адабиёти дурданаларидан баҳраманд бўладилар, уларнинг эстетик туйғулари ошади, дидлари ўсади, уларда гўзал нарсалар ҳақида тушунчалар ҳосил бўлади. Бундан ташқари, таржима қилинган халқаро ҳуқуқий ҳужжатлар дунё амалиётидаги инсон ҳуқуқларига таалуқли ҳуқуқларни ҳимоя қилувчи барча ҳужжатлар билан танишадилар ва шу билан бирга уларнинг ҳуқуқий он-ларини ўстиришга ёрдам беради.

Таржима тилларнинг камолоти учун зарурий восита сифатида, уларнинг ривожланиш суръатини жадаллаштиради, луғат бойлигини оширади ва такомиллаштиради. Таржима инсон маънавий ахлоқий ҳаётини бойитади, она тилининг имкониятларини руёбга чиқаради, уни хилма хиллигини оширади. Таржима туфайли ўкувчининг тафаккури чархланиб, янги фоялар, тушунчалар билан бойиди.

Таржима жамиятимизда янгича муносабатлар, қарашлар карор топишига хизмат қиласи. Таржима туфайли миллатлар адабиётлари ўртасидаги алоқаларнинг маҳсули сифатида янгича сюжет, жанр шаклланади, халқаро ҳужжатлар таржималари туфайли дунё миқёсидаги андозалардан фойдаланиш имконияти юзага келади. Таржима Ватан адабиётига янги образлар, бадиий-тасвирий воситалар ҳадя этади, халқаро ҳужжатлар таржималари инсоният тараккиётининг энг асосий ютуқларидан бири бўлган инсон ҳуқуқлари фоясини қўллаб инсонни юқори қадрлаш кодексини барпо этади. Бир сўз билан айтганда, таржима - аслиятни қайта яратиш, қайта талқин этиш санъатидир. Аммо шуни ҳам эътиборга олиш лозимки, таржима – бу фақат алоқа воситасигина эмас, балки ўзига хос лисоний-услубий ва терминологик бойитишнинг қудратли омили ҳам ҳисобланади. Лисоний таржима хилмажил турларга бўлинниб, ўгирилаётган матннинг хусусияти ва қайси соҳа доирасида экани таржиманинг ўзига хос ўрнини белгилайди. Бадиий адабиёт намуналарида бадиий-эстетик ва поэтик жиҳатлар, касб хунарларга оид матнларда эса терминлар ҳукмронлик қиласи. Таржиманинг асосий мақсади - хорижий тил лисоний воситалари ёрдамида яратилган матнни она тилига хос материал асосида қайта яратишдан иборатдир. Бунинг учун таржима жараёнида таржимон, авваламбор, асл нусхани тўла-тўқис идрок этиши, сўнгра уни ўз тилида камчиликларсиз қайта ифодалаши мухим. Матн маъносини тўлалигича идрок этиш учун таржимон кенг мушоҳада кўникмасига эга бўлиши ва матн таркибидаги лисоний воситаларнинг мазмуний ва услубий-эстетик жиҳатларини тўғри англаши, шунингдек муаллиф назарда тутган бош фояни, унинг ният ва мақсадларини очиб бериши зарур. Таржиманинг вазифаси - аслият ва таржима тиллари лексик, грамматик ва стилистик ҳодисалари ўртасидаги ўхшашлик ҳамда тафовути жиҳатларни пухта ўзлаштириб олган ҳолда, аслиятнинг шакл ва мазмун бирлигини она тили воситалари ёрдамида қайта яратишдан иборатдир. [3] Бу тамойилга риоя қилмаслик таржимада аниқликнинг, тўла-тўқисликнинг, ҳамда ифода меъёрининг бузилишига олиб келади. Асл нусхада муаллифдан воқеликни тўғри акс эттиришни талаб этилса, таржимондан асл нусхани камчиликларсиз талқин этиш талаб қилинади. Таржимада асл нусханинг шакл ва мазмун бирлигини яхлитлигини беками-кўст ифода этиш учун таржима тилида муқобил ифода воситалари қидириб топиш зарурати туғилади. Бу жараён асл нусха мазмунини ўзга тилда ифода этишнинг қатор имкониятлари орасидан энг мақбулини танлаб олишни тақозо этади.

Асл матн ва таржима тилларининг лингвистик имкониятлари одатда ўзаро ўхшаш ҳолатида бўлмаслиги, яъни икки тил сўз ва ибораларининг мазмуни билан эстетик



қиймати қатор матний ҳолатларда бир-бирининг ўрнини қоплай олмаслиги талай таржимавий қийинчиликларни юзага келтиради. Таржима давомидаги муаммоларни бартараф қилиш таржимондан пухта филологик билим ва керакли назарий тайёргарликни талаб килади. Таржимон назарий билимни таржима амалиёти тахлили асосида таржима назариясидан олади. Таржима назариясининг вазифаси - асл нусха билан таржима ўртасидаги нисбат конуниятларини кузатишдан, хусусий таржимавий ҳодисалардан хосил бўлган хуносаларни илмий далиллар асосида умумлаштиришдан, шу йул билан таржима амалиётiga таъсир ўтказиб, унинг сифатини яхшилашдан иборатдир. Таржима амалиёти мақбул ифодалаш воситаларини қидириб топиш усули билан муайян таржима муаммоларини ҳал қилишда зарур клише (андоза), қоида, далил ва исботларни таржима назариясидан олади. Шундай қилиб, икки тил лисоний-услубий ҳодисаларини қиёслаш орқали асл матннинг шакл ва мазмун бирлигини таржимада муқобил лингвистик воситалар ёрдамида қайтадан яратиш, янгича усул ва янги имкониятларини қидириб топиш ва бунинг асосида таржима амалиётининг сифат ўзгаришига олиб келадиган назарий умумлашмалар яратиш таржима назариясининг предметини белгилайди. "Мамлакатимизда таржима назарияси мустакил филологик соҳа сифатида асосан XX асрнинг 50-йилларидан эътиборан шаклана бошланган бўлса-да, таржима амалиёти бир неча минг йиллик тарихга эга. Бундан таржимачилик минг йиллар мобайнида назариясиз ривожланиб келган экан-да, деган хуроса келиб чиқмаслиги керак". [4] Кўплаб араб, форс, туркий ва рус тилларидан кўпгина тарихий, сиёсий, диний, илмий, фалсафий ҳамда бадиий китобларни ўз тилларига таржима қилиб келган таржимонларимиз умумий бир қоидалари ёзилмаган, тартибга келтирилмаган, умумлаштирилмаган бўлсада, кўп асрлар мобайнида қабул қилинган, риоя этилган маълум таржимачилик ақидаларига асосланиб иш кўриб келганлар. Таржима назариясининг аҳамияти шундан иборатки, у айрим таржимонларнинг субъектив майлига, матн таржимасига «интуиция» йўли билан ёндашиб, ўзбошимчаларча иш кўришларига тўсиқ қўяди. Чунки «Таржима - бу илҳом, юксак истеъод ва интуиция билан чуқур филологик билим, тинимсиз лугавий меҳнат ҳамда ўринли илмий шархнинг қоришмасидан иборат на зарий-ижодий жараёндир». [5]

Зеро, ҳар қандай амалий фаолият сингари таржимачилик ҳам қонуниятлар жорий қилинишига ва назарий умумлашмалар яратилишига эҳтиёж сезади. Бундай қонуният ва умумлашмалар, ўз навбатида, кенгроқ миқёсдаги хуносаларга олиб келгани ҳолда, уларни қатор таржимавий ҳодисаларга тадбиқ этишга унрайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода. М.: ИМО.1980
2. Мусаев К. Таржима назарияси асослари: Дарслар.Т.: Фан. 2005. – Б.9;10
3. Реформатский А. А. Введение в языковедение. М., 1996.
4. Бўронов Ж.Б. Сравнительная типология английского и тюркских языков. –М.: Высшая школа, 1983. – С.267.
5. Саломов F. Таржима ташвишлари. Т.: Faфур Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983. - Б. 149
6. Содиков А.С., Абдуазизов А.А., Ирискулов М.Т., Тилшуносликка кириш. –Т.,1981. – Б. 96.
7. Мельчук И.А. Опыт теории лингвистических моделей «Смысл – Текст». Ч. 1. Семантика, синтаксис. М., 1974.
8. Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. (лингвистические проблемы): СПбГУ; М.: ООО «Издательский Дом «ФИЛОЛОГИЯ ТРИ», 2002. -416 с. — (Студенческая библиотека).
9. Чернов Г. В. Теория и практика синхронного перевода. М., 1978.
10. Hockett Ch. A course in modern linguistic. Chicago, University of Chicago press. 1958. – р. 384.



PECULIARITIES OF USING MULTIMEDIA IN ENGLISH LESSONS

Усманова Севара Салимовна,
г.Навоий, СШУИОП №1
учитель английского языка

Annotation: the present article is devoted to the features of using multimedia during English lessons and its recognition.

Key words: learning process, integral part, human activity.

Modern information technologies based on telecommunications and multimedia are the basis of changes in education area. Development is an integral part of any human activity. A person is constantly growing by accumulating experience, improving ways, methods of action, expanding his mental abilities.

The same process is applicable to any human activity, including teaching. At different stages of its development, the society imposed several new standards and labor requirements. This necessitated the development of the education system.

People who work in both state and business system should constantly improve their skills in order to withstand competition in the labor market, since the competitiveness of a modern specialist is determined not only by his high qualifications in the professional sphere, but also by his readiness to solve professional tasks.

The transition from natural communication in the traditional form of education, to virtual communication in ICT determines the characteristics of modern education. Multimedia is a set of technical and software tools that enable a person to communicate with the computer using the natural environment: audio, video, graphics, texts, animation, and more.

Training specialists in the field of communications through the multimedia tools has the following advantages:

- a) The materials are taught deeper and they are more accessible;
- b) Communication is closer accepting the areas of education;
- c) Achieving time-savings as a result of curriculum downtime;
- g) The gained knowledge will be kept in memory for a long time.

On the basis of the recommended multimedia tools students can find the information they need from a computerized information bank and exchange their experiences with others on an e-network basis. This ensures that learners can communicate well with others, and encourage their knowledge by this kind of training.

As well as, Innovative multimedia teaching tools affect the quality and methodology of teaching, allowing us to expand the practical component of the lesson, as well as qualitatively improve the perception of theoretical information. The use of multimedia technology in the educational process directly affects the cognitive activity of trainees. Thanks to multimedia technologies, educational materials became more visible and interesting.

The use of multimedia presentations allows us to use not only listening, but also visual memorization. Also, the use of animated effects in presentations helps to focus the attention of students and diversify the visual range, thus the associative visual memory will be involved. In addition, a multimedia presentation prepared by the teacher in advance significantly saves study time.

Multimedia integrates powerful distributed educational resources; they can provide an environment for the formation and indicator of key competencies, which primarily include informational and communicative. Multimedia technologies open fundamentally new methodological approaches in the education system.

Thus, the use of information and communication technologies in teaching FL allows:

- provide a positive motivation for learning;
- conduct lessons on a high aesthetic and emotional level (music, animation);
- increase the amount of work performed in the lesson by 1.5-2 times; - improve the control of knowledge;
- rationally organize the learning process, improve the effectiveness of the lesson;

References

1. Starodubcev, V. A.Komp'juternyj mul'timedijnyj kompleks soprovozhdjenija kursa Koncepcii sovremennoogo est-estvoznanija / V.A. Starodubcev //



ROLE OF A TEACHER IN A CLASS

*Юсупова Ирода Раҳматуллаевна,
г.Навоий, школа №18
учитель английского языка*

Annotation: the present article is devoted to the role of a teacher in a class during teaching and learning process.

Key words: receptive skill, induction and deduction approach, collective agreement.

Teachers are essential parts of teaching and learning process; they play a number of different roles within the system. We are going to focus on some roles of teachers in class. Teachers as parent advocates: It is important to advocate on behalf of one's child. It is frustrating to see your child struggle, or to see the school system make a decision you feel adversely affects your child. However, it is crucial for the teacher in this position to be aware of their roles as a member of the teaching profession and as an employee of the school board.

As an advocate for your child, make sure your actions do not compromise your other roles. Teachers as Employees: as employees of the board, teachers have the right to complain about breaches of the collective agreement. Avenues to explore a resolution are set out in the collective agreement. These activities are directly related to the employment relationship between the employee and the employer. Teachers should be cautious about taking part in community action against their employer on issues that involve their child's education. For example, if the school board made a decision about staffing or school closure that the teacher was not happy with because of a perceived impact on his or her child, the teacher would have to be cautious about how she or he advocated for change. Participation in such an activity must be professional and appropriate, or the teacher risks being disciplined for "insubordination". While teachers have the right to freedom of expression, they must many occasions when teachers are vocal in their opposition to their employers without being insubordinate. For example, during collective bargaining, teachers often participate in collective activities, such as wearing appropriate protest buttons or distributing leaflets, as a part of a union sanction or advice from Professional Relations Services. Teachers who find themselves in difficulty because of their competing rules should remember the following: Talk to your child's progress.

In modern classroom, teachers are facilitators of student learning and creators

of productive classroom environments, in which students can develop the skills they might at present or in future. However, before we begin to understand the evolving role of an ESL teacher, let's outline some of the most popular teacher roles. Harmer, J. states that 'it makes more sense to describe different teacher roles and say what they are useful for, rather than make value judgments about their effectiveness.

So here are some of the most common teacher roles: Most teacher take on a variety of roles within the classroom, which role do you think most defines your role in the

ESL classroom? The Controller: The teacher assumes this role when new language is being introduced and accurate reproduction and drilling techniques are needed. In this classroom, the teacher is mostly the centre of focus, the teacher may have the gift of instruction, and can inspire thought their own knowledge and expertise, but, does this role really allow for enough student talk time? It is really enjoyable for the learners? There is also a perception that this role could have a lack of variety in its activities. The Prompter: The teacher should be helping students only when necessary.

When learners are literally 'lost for words', the prompter can encourage by discreetly nudging students. Students can sometimes lose the thread or become unsure how to proceed; the prompter in this regard can prompt by always in a supportive way. The Resource: The teacher is a kind of walking resource center ready to offer help if needed, or provide learners can consult her/him when (and only when) it is absolutely necessary. As a resource the teacher can guide learners to use available resources such as the internet, themselves, it certainly isn't necessary to spoon-feed learners, as this might have the down side of making learner reliant on teacher.



OGAHIY G'AZALLARINI YAPON TILIGA TARJIMA QILISH JARAYONIDA EKVIVALENT SO'Z TANLASH MASALALARI

*Turdaliyev Obidjon Sodiqjon o'g'li
TDSHU 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining yetuk vakili shoir, tarixshunos olim, yetuk tarjimon, davlat arbobi Muhammad Erniyozbek o'g'li Ogahiyning go'zal lirik ijodiy merosini o'zbek tilidan yapon tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan ekvivalent so'z tanlash masalalari shoirning "Bo'sa ber" radifli g'azali asosida tahlil etiladi. Maqolaning maqsadi g'azal tarkibidagi tasavvufiy ma'no anglatuvchi so'zlearning ramziy ma'nosi va asar mazmuniga ta'sirini tarjima matnida ham saqalab qolish uchun qanday tarjima usullaridan foydalanish ekvivalent so'zning asliyatga mazmunan yaqinroq shaklda ifodalashga xizmat qilishini tavsifyi usulda tadqiq etishdir.

Kalit so'zlar: Ogahiy, bo'sa, yakpora g'azal, tub ma'no, tasavvufiy istiloh

Muhammad Erniyozbek o'g'li Ogahiy o'zbek adabiyotida sermahsul ijodkor sifatida Navoiyga qiyoslanadigan yetuk adib hisoblanadi. Ogahiy hazratlarining nafaqat ijodiy, balki ilmiy, shuningdek tarjimaviy meroslari ham alohida ahamiyatga ega tarixiy voqeа sifatida e'tirof etiladi. Komil Xorazmiy Ogahiy haqida shunday yozadi:

"Ulki ogahlarning ogahidir,
Fazl-u donish sipehrining mahidur".

Bugungi kunda "ogahlar ogahi" Ogahiyning ilmiy merosini o'rganish va uning ijodiy merosini boshqa chet el tillariga tarjima qilish asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Jumladan, tasavvufiy adabiyot terminologiyasi, g'azalning mazmunidan anglashilgan ishqilohiy chizgilarni o'zga xalq, o'zga din, o'zga adabiyot vakillariga yetkazish muammolari bugungi tarjimonshunoslikning asosiy masalalaridan biridir. Chunki tasavvufiy she'rlarni o'qish o'quvchi tomonidan alohida tayyorgarlik talab etadi. Tasavvufiy she'rlarda badiiy istilohlar alohida ma'nolar ifoda etib, ularning aynan tarjimalari boshqa tillarda asliyat matnidan butkul yiroq bo'lgan ma'noni ifodalashi mumkin. Ayniqsa, o'zbek tilidan yapon tiliga tasavvufiy she'rlarni tarjima qilish tarjimondan alohida tayyorgarlik talab etadi. Yapon adabiyotida tasavvuf yo'naliشining mavjud emasligi, yapon she'riy janrlarida g'azal janriga yaqin she'riy qolipning yo'qligi ham mazmuniy izoh, ham she'riy qolip, shuningdek, she'riy ohangdorlikni hosil qilish masalalarini yuzaga keltiradi. Sharq mumtoz she'rlarini yapon tiliga tarjima qiluvchi tarjimon oldida she'riy mazmunning asosini saqlab qolish, shu bilan birgalikda, yapon millati kitobxonlari uchun tushunarli tarzdagi hissiy ifodani berish uchun maqbul ekvivalent so'z tanlash kabi mas'uliyat yotadi. Ogahiy g'azallarining ko'p qismi lirik g'azallar hisoblanib, unda shaklan muhabbat mavzusi yoritilgan bo'lsa ham, tub mohiyati ishqilohiy bo'lib Allohning vasliga intiq oshiq mavzusi yaqqol barq urib turadi. Ushbu maqolada Ogahiyning "Bir bo'sa ber" nomli radifli yakpora g'azalida "bo'sa" so'zining yapon tilidagi ekvivalenti shaklini tanlash usullari tahlil etilishi asosida tarjima sifati masalalari tadqiq etiladi.

Ey yuzing shavqi tanimdin oldi jon, bir bo'sa ber,
Vay labing zavqi ichimni qildi qon, bir bo'sa ber.

Ushbu misrada ishtirok etgan "shavq" so'zi arabcha so'z bo'lib, his-tuyg'u, ehtiros; kuchli orzu, havas, istak ma'nolarini ifoda etadi. Misraning qisqacha ma'nosi quyidagicha izohlash mumkin "Ey (Sening) yuzingni ko'rish istagi tanimdagи jonimni oldi, bir bo'sa hadya etgin, vay labing zavqi (huzuri) ichimni qon ayladi bir bo'sa hadya etgin". Bir qarashda ushbu misra bir yigitning o'z sevganiga murojaati sifatida ko'rindi. Ammo misraning tub mohiyati ishqilohiy bag'ishlanganligi misralarda yor tavsifining ulug'vorligida tasavvufiy ifodalarning keng qo'llanilganligida yaqqol namoyon bo'ladi. G'azalning "bir bo'sa ber" radifi orqali aynan alohiy ishq manzarasi, Buyuk haqqa yetish, Allohning visoliga intilish g'oyasi olg'a surilgan. "Bo'sa" fors tilidan olingan so'z bo'lib "o'pich", "muchchi" degan ma'nolarni ifodalaydi. She'riyatda "bo'sa" mehr-muhabbat, erkalash, o'ta hurmat izhori sifatida namoyon bo'ladi. Lekin o'zbek



mumtoz adabiyotining tasavvufiy g‘oyalar bilan sug‘orilgan g‘azallar tarkibida “bo‘sa” tasavvufiy istiloh sifatida alohida ma’no ifodalaydi. “Bo‘sa” – tasavvufiy istiloh sifatida “solih bandaning Allohdan lutf-u karam tilash” ma’nosini ifoda etadi. Tasavvufiy atamalar asosida g‘azalning asl mazmuni, hissiyot jilvasi, shoirning nolasi ifoda etiladi. Tarjimada aynan mana shu ma’noni saqlab qolish asosiy vazifa sanaladi. Ayniqsa, dinlar farq qiladigan ikki mamlakat uchun ham diniy falsafa, ham she’riy ohang va she’riy mazmunni tarjima matnida ifoda etish dolzarb masalaki, agar tasavvufiy atamalarning alohida mazmuniga e’tibor berilmasa, asliyat matniga butunlay teskari ma’no bo‘lgan ma’no anglashilib qolishi mumkin. “Bo‘sa” so‘zining yapon tilida bir necha ekvivalent shakllari mavjud: “キース(kisu)、接吻(seppun)”。 Tarjimada ushbu ekvivalent so‘zlarning qaysi birida ham falsafiy ma’no, ham poetik joziba saqlab qolinishi shu bilan bиргаликда bunda asliyat matniga yaqinlik mavjudligini anglagan holda tanlov amalga oshirilishi uchun so‘z orqali shu tilda so‘zlovchi xalqning tafakkurida qanday axborot uzatmalarini hosil qilish jarayonini tahlil qilish talab etiladi.

“接吻 (seppun)” – yapon tilida “相手の唇・手などに自分の唇をつけること。愛情や尊敬のしるし” “mehr, muhabbat, o‘ta hurmat izhori sifatida boshqa odamning labiga yoki qo‘liga labni tegizish” kabi ma’nolarni ifodalaydi.

1.昔、ジアン・リシュパンは通りがかりのサラア・ベルナアルへ傍若無人の接吻をした。日本人に生れた保吉はまさか接吻はしないかも知れないけれどもいきなり舌を出すとか、あかんべいをするとかはしそうである。彼は内心冷ひやしながら、捜すようになさないよう。(Akutava Ryoneske)

Ushbu misolda ishtirok etgan “接吻 (seppun)” so‘zi “hurmat, ehtirom” ifodasi sifatida qo‘llanilgan.

2.接吻をする時には目をつぶっているものなのでしょうか？それともあいているものなのでしょうか？」あらゆる女学校の教課の中に恋愛に関する礼法のないのはわたしもこの女学生と共に甚だ遺憾に思っている。(Akutava Ryoneske)

2-misol tarkibida kelgan “接吻 (seppun)” so‘zi “sevgi izhori” ma’nosida qo‘llanilgan. Yapon adabiyotida “bo‘sa” hurmat, sevgi izhori ma’nosida qo‘llaniladi. Shu sababli Ogahiy g‘azalidagi mavjud “bo‘sa” so‘zini shunday tarzda tarjima qilinsa, majoziy ishq ma’nosи shakllanib qoladi. Shu sababli “bo‘sa ber” so‘zi qaysi ekvivalent so‘z bilan berilsa ham alohida izoh, nasriy bayon talab etiladi. Bu shakllar alohida havola orqali berilib, o‘quvchi nigohida asliyatdagi tasvir uyg‘unligiga monand ma’no ifodalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, g‘azallar tarjima qilish jarayonida har bir so‘z ustida alohida ishslash talab etiladi. Birinchidan, g‘azal ohangini tashkil etish; Ikkinchidan, so‘zning asliyatga monand shaklda ifoda etish; Uchinchidan, g‘azaldagi hissiy bo‘yoqni saqlab qolish bilan bиргаликда g‘azaldagi falsafiy g‘oya saqlanib qolishi kerak.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yhati

1.I.Sultonov. Adabiyot nazariyasi.T., "O'qituvchi", 1980.

2.To'xta Boboyev. Adabiyotshunoslikka kirish.T., "Universitet" 2000

Internet saytlari

1.ziyonet.uz

2.www.wikipedia.com

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(7-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000